DOI: https://doi.org/10.37547/supsci-ojp-05-03-66 Pages: 575-581

Oriental Journal of Philology



ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY

journal homepage:
http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about



THE REPRESENTATION OF ARABIC PROVERBS IN UZBEK TRANSLATION

Oqila Sattorova
Trainee teacher
Higher School of Arab Studies
Tashkent State University of Oriental Studies
Email: sattorova.oqila@mail.ru
Uzbekistan, Tashkent

ABOUT ARTICLE

Key words: translation methods, equivalence, alternative, translation issues, transformation, source text, target language.

Received: 06.03.25
Accepted: 08.03.25
Published: 10.03.25

Abstract: This article discusses the methods of translating Arabic proverbs into Uzbek and the challenges encountered in the process. Examples of Arabic proverbs are provided, along with an analysis of the techniques used to convey their meaning in translation.

ARAB XALQ MAQOLLARINING O`ZBEK TILIDA TARJIMADA AKS ETTIRILISHI

Oqila Sattorova
O'qituvchi-stajyor
Arabshunoslik oliy maktabi
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
Email: sattorova.oqila@mail.ru
O`zbekiston, Toshkent

MAQOLA HAQIDA

Kalit so`zlari: tarjima usullari,ekvivalent, muqobil, tarjimamuammosi, transformatsiya, asliyat, tarjima tili.

Annotasiya: Ushba maqolada arab xalq maqollarining o`zbek tiliga tarjima qilish usullari va ularni tarjima qilishdagi muammolar hususida ,arab xalq maqollaridan misollar keltirilib ular qasi usulda tarjimada berilishi haqida fikr yuritiladi.

ПЕРЕВОД НАРОДНЫХ АРАБСКИХ ПОСЛОВИЦ НА УЗБЕКСКИЙ ЯЗЫК

Окила Сатторова
Преподаватель-стажёр
Высшая школа арабистики
Ташкентский государственный университет востоковедения

Email: sattorova.oqila@mail.ru
Узбекистан, Ташкент

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: методы перевода, эквивалент, аналог, проблема перевода, трансформация, оригинал, язык перевода.

Аннотация: В данной статье рассматриваются методы перевода народных арабских пословиц на узбекский язык, а также проблемы, возникающие при их переводе. Приводятся примеры арабских пословиц и анализируется, каким способом они передаются в переводе.

Kirish. Maqollar har bir xalqning kelib chiqishining, urf odatlarining, qolaversa til boyligining, o`lchovi hisoblanadi. Maqol so'zining lug'aviy ma`nosi o'ta donolik, aql-zakovat bilan oqilona aytilgan muxlat qo'yiladigan, o'zgartirib bo'lmaydigan chuqur ma`noli gap demakdir. Xalq ijodiyotining o'ziga xos ja`mi og'zaki nutqdan ham yozma adabiyotdan ham turli atamalar bilan nomlanadi. Maqol, matal, naql, masal, hikmatli so'zlar aforizmlar, ota-bobolar so'zi donolar va xakozo. Bular orasida maqol atamasi keng qo'llaniladi.

Rus yozuvchisi A. Tolstoy quyidagi fikrni ifodalaydi. "Xar bir xalqning tarixa tafakkuri va ruhiy xolatlari maqol matallarda o'z ifodasini topadi. Xar bir xalqning o'z maqoli matali bor."degan. Arab tilida esa, maqol مثل "masal" deyiladi.

"Masal" so'zining umumiy o'zagi yasalishiga ko'ra ikkita ma'noga ajraladi: 1) "o'xshash" ma'nosi; 2) "hissiy suratda bayon qilish" ma'nosidir. (R. Zelhheim: al-Amsol al-Arabiyyatu al-Qadima (Old Arabic Proverbs) – pp. 21-22.)

Ba'zi sharqshunoslar bu so'zni etimologik jihatdan oromiy tilidan o'zlashgan so'z deb hisoblashadi.

"Masal" so'zining ma'nosi lug'atlarda quyidagi tushunchalarni ifodalaydi: Tenglashtirish, o'xshatish, o'xshash, hadis(so'z), sifat, xabar, namuna., hujjat, tenglash, ibrat, oyat (alomat, belgi), miqdor, qolip, tik turish (gavdalanish), maqsad qo'yish, fazilat, tasvir, yerga opishish, ketish, zavol bo'lish, azob berish, uqubat, qasos, qiyinchilik, ko'rpa, namat, vasf, bayon qilish. "Lison-ul-arab"da ushbu so'z haqida quyidagicha keladi: "masal" so'zining "tenglashtirish" ma'nosida kelishining sababi "haza misluhu" "bu uning tengi" deb ishlatilishidir. Shuningdek, bu so'z "shibhuhu" "uning o'xshashi" deb ham aytiladi.

Har bir maqol ham ma'no, ham shakl, ham stilistik funksiyasi jihatidan o'ziga xos xususiyatga ega.Tarjimashunoslik fani nuqtai nazari jihatidan maqol tarjimasi bu bir madaniyatni boshqa bir madaniyatga moslashtirish demakdir.Agar bunda asliyat va tarjima tili urf- odat va madaniyatlari o`zaro yaqin bo`lsa,bir-biriga o`xshash maqollar ko`p uchraydi. Masalan:

انَّ الحِيطَان لهاأذَان

Bu maqolning tarjimasi “Haqiqatda devorning quloqlari bor” bo`ladi.Bu maqol o`zbek xalq maqollari orasida ham mavjud bo`lib,arablar bu maqolni xuddi o`zbek tilidagi kabi maxfiy gap gap gapirganda kimdir uni esgitib qolishi mumkin, degan ma`noda qo`llashadi.Ushbu maqol ham shaklan ham mazmunan o`zbek tilidagi ekvivalentga mos keladi.

لن يتوسخ الجر اذا أدخل الكلب فيه بوزه

Tarjimasi: “It tumshig`ini suqqan bilan qo`shni ifloslanmaydi”

Aynan shu maqolning o`zbek tilida quydagi muqobili mavjud. “Итнинг оғзи теккан билан дарё суви ифлос бўлмайди.”.(Oybek: Navoi (Navoi), Tashkent, 1985, p. 235. In uzbek)

Bu maqoldan shu narsa ko`zga tashlanadiki,o`zbek va arab xalqlari madaniyati bir-biriga yaqindir.har ikkala maqolda ham nopoklik ramzi sifatida it ifodalanilayapti.Ammo hindlar uchun it poklik ramzi hisobladi.Maqolda It va uning tumshug`i hamda, ifloslanish fe`lli ikki til leksikasida ham bir xil,ammo o`zbek tilida daryo suvini ifloslash arab tilida qo`shni ifloslar leksikalarida farq bor.Bundan kelib chiqadiki,bu maqolda ham ikki tilidagi maqollar shaklan va mazmunan ham o`shashdir.

Quyda keltirmoqchi bo`lgan maqolimizda o`zbek xalqiga xos qanoat qilishga undaydigan maqol arablarda ham borligini ko`ramiz.

عَصَا الْجَبَانِ أَطْوَلُ -

Tarjimasi: “Qo`rqoqning hassasi uzun” maqolning o`zbekcha muqobili “Qo`rqoq oldin musht ko`tarar” bo`ladi .Bu maqol leksikasidagi qo`rqoq so`zi arab va o`zbek tillirida bir xil qo`llanilgan ammo, arablar hassasi uzun, o`zbeklar esa musht ko`tarara deb berganlar. Bu maqolda ham ikki xalq o`rtasidagi ma`daniyatlar yaqinligi aks etadi.

مِثْلُ المَاء خَيْرٌ مِنَ المَاء

Tarjimasi: “Suvdek bo`lsada suvdan yaxshi” Бу мақол mazmuni, кам бўлса ҳам унга қаноат, шукр қилиш ҳақидадир.

O‘zbek tilida «Ko‘p bo‘lsa ketar, kam bo‘lsa yetar» degan maqolga to‘g‘ri keladi. Arablarda ushbu, maqolning quydagicha rivoyati bor Bir odam ikkinchi bir odamga sutni tatib ko‘rishni aytganida, o‘sha inson sutni tatib ko‘rgach sut xuddi suv kabi suyuq ekanligini aytadi. Shunda o‘sha inson umuman yo‘q bo‘lgandan ko‘ra boriga shukur qilishni aytgan edi. Shu tariqa bu so‘zlar maqolga aylangan. Endi esa, o`zbek tilida shakl jiyatdan tomomila farqli bo`lsada,mazmunan muqobiliga ega maqollarga misol keltiramiz:

عَصَا الْجَبَانِ أَطْوَل

Tarjimasi: “Qo`rqoqning hassasi uzun” maqol leksikasidagi qo`rqoq so`zi arab o`zbek tillirida bir xil qo`llanilgan ammo, arablar hassasi uzun, o`zbeklar esa musht ko`tarara deb berganlar. Bu maqolda ham ikki xalq o`rtasidagi ma`daniyatlar yaqinligi aks etadi.

«Qo`rqoq oldin must ko`tarar!»

لِكُلِّ دَاءٍ دَوَاءٌ -

Hamma dardning davosi bor.

«O`limdan boshqa narsaning davosi bor».

الاتحاد قوة

Birlik kuchdir. (Kuch birlikda) (Abdujabbrovor A.: The Arabic Language – Tashkent Islamic University, 2007, p. 87)

معروف كالغرة فى جبين فرسك

Otning peshonasiga qashqaday ma`lum.

O`zbek tilida esa «Otning qashqasiday ma`lum.» (Oybek: Navoi (Navoi), Tashkent, 1985, p. 235.)

العلم فى الصغر كالنقش على الحجر

Yoshlikdagi ilm tashdagi naqsh kabidir. (Abdujabbrovor A.: The Arabic Language – Tashkent Islamic University, 2007, p. 32 in uzbek)

O`zbek tilida esa: «Yoshlikda olingan bilim toshga o`yilgan naqshdir».

Maqol xalqning pand-nasihati va ma'naviy-axloqiy xulosasi, xalq milliy ruhining aks-sadosi, til tabiatining hikmatli mezonidir. Maqol to'qilmaydi, balki, ma'lum shart-sharoit taqozosi bilan yaratiladi.

Maqol chuqur ijtimoiy, axloqiy, falsafiy-hikmatona mazmunga ega. Shu sababli ba'zi maqollar butun bir roman yoki dramaning mazmunini o'zida ifodalashi mumkin. Chunonchi, N.V.Gogolning mashhur "Revizor" komediyasida epigraf qilib olingan "Basharang qiyshiq bo'lsa oynadan o'pkalama" maqolining asarning boshdan oxirigacha jaranglab turadi.

Shahar hokimi, Xlestakov, Dobchinskiy va Bobchinskiy, hokimning xotini, qizi hamda boshqa obraz va personajlarning butun hatti-harakatlari eslatib turadi.

Dunyoda tilsiz xalq bo'lmagani holda maqolsiz til ham yo'q (Noziy Eslibat).

Xalq maqoli har bir kishi amal qilishi lozim bo'lgan o'ziga xos axloqiy hodisalar kodeksidir. Har bir maqol ham ma'no, ham shakl, ham stilistik funksiyasi jihatidan o'ziga xos xususiyatga ega. Hamma maqollarda ham umumiylik bor.Maqol tarjimasining o`ziga xosligi shundaki, unda bir tilda berilgan maol boshqa tilda uning muqobili bilan beriladi.Quyda shunday maqollarga misol keltiramiz:

إِنَّ فِي الشَّرِّ خِيَارا

Yomonlikda ham bir hikmat bor. (Yani yomon ishda ham oxiri yaxshilikka yetaklovchi yaxshilik bor!).

ما تَنْفَع الشَّغْفَةُ فِي الوَادِي الرُّغُبِ -

Kuchsiz yomg'ir keng diyorga yordam bera olmaydi.

Bu maqolda, biror inson yordamga muhtoj insonga yordam beradi, lekin uning bu yordami unga hech bir foyda bermaydi. (ya’ni kimgadir biror narsa berishdi lekin bu unga, o‘sha insonga yetmaganligi haqidadir). Bumaqolning tarjimasi “Tuyani cho‘mich bilan sug‘ordi” maqoliga to‘g‘ri keladi.

قلب الشاب دليله

Yigit ko‘ngli - uning yo‘l ko‘rsatuvchisi.

O‘zbek tilida esa: «Yigit ko‘ngli - podshoh» deyishadi. (Oybek: Navoi (Navoi), Tashkent, 1985, p. 214)

لكل طعام أكلة

Har taomning yeyuvchisi bor. Bu maqol o‘zbek tilidagi “Teshik minchoq yerda qolmas yerda qolasa, kimlar olmas.” maqoliga to‘g‘ri keladi.

“Xalq maqoli xalqning mulkidir. Maqol qayg‘usi - xalq qayg‘usi, maqol g‘azabi xalq gazabi, maqol kulgusi xalq kulgusi va maqol kinoyasi xalq kinoyasi demakdir. Maqol yaratmagan biron-ta til maqol ishlatmagan bironta xalq yo‘q» (Salomov G.: Translation of Proverbs, Sayings, and Idioms from Russian to Uzbek Fan, 1961,p. 38)

«Tilning asl qaymogi, uning o‘ziga xos xususiyatlarini va tabiatini belgilay-digan, uning kamolot darajasi qanday ekanligini ko‘rsatadigan, boshqa tillar o‘rtasida tutgan o‘rnini tayinlashda muhim omil bo‘lgan narsa undagi maqol, matal, idioma va boshqa shu kabi ko‘chma ma’noli birikmalardir. Bunday birikmalarni bir tildan boshka tilga tarjima qilishning goyat murakkab va muhim ish ekan-ligi bu masalani badiiy tarjima nazariyasining asosiy prob-lemalari qatoriga kiritishga sabab bo‘lmoqda»

Maqol va frazeologizmlar bir tildan boshqa tilga tarjima kilinayotganda xar kanday xolda ham ularning obrazli asoslari aynan muvofiq keladigan bir variant bilangina tarjima qilish bazdan sun’iylikka olib kelishi mumkin. Har qanday sharoitda ham bunday birliklarning tarjima tilidagi ekvivalentlari va mukobil variantlari bilan ko‘r-ko‘rona almashtiraverilishi uslub-ning galizlashishi, tarjima tilining chegaralanib, bir xil qolip-dagi siykasi chikkan makol, matal va idiomalarning uzluksiz takror-lanishiga olib kelishi olimlar tomonidan alohida ta’kidlanadi.

Maqol so’zining ko’rki, nutqning o’tkir quroli, xalqning donishmandligidadir. Har bir xalqning tarixi, tafakkuri va ruhiy holatlari maqol, matallarda o’z ifodasini topadi. Har bir maqolda shu maqolni yaratgan xalqning timsoli, xalqning milliy madaniy merosi namoyon bo’ladi.Shunga ko`ra ,ayrim maqollar borki, ular tarjima qilinayotgan tilde mavjud bo`lmasada lekin tarjima orqali ularning ma`nosi tushinarli bo`ladi. Bunday maqollar tarjima tilining yanada boyishiga yordam beradi.

ما الأَوَّلُ حَسُنَ حَسُنَ الآخِرُ

Yaxshilik bilan boshlangan ish xayrli (yaxshilik bilan) yakun topadi.

الحِكْمَةُ ضَالَّةُ الْمُؤْمِنِ -

Donishmandlik-ishonchi mustahkam, iymonli kishining topilmasidir!?

Yani, iymonli, ishonchi mustahkam inson har yerda va har joyda donishmandlikni qidiradi va albatta uni topadi.

تَحْت جِلْدِ الضَّأْنِ قَلْبُ الاَذْؤُبِ-

Terisi qo‘yniki, qalbi esa bo‘rinikiday (yani bo‘ri qo‘y terisi ostida).

Bu maqol ikkiyuzlamachi va yolg‘onchi insonlarga nisbatan ishlatiladi.

عِزُّ الرَّجُلِ اسْتِغْنَاؤُهُ عَنِ النَّاسِ -

Insonning buyukligi, uning boshqalarga (insonlarga) qaram emasligidadir.. النِّسَاءُ شَقَائِقُ الأَقْوَامِ

Ayollar erkaklarning singlisidir..

معنى المثل إن النساء مثلُ الرجال وشقت منهم، فلهن مثل ما عليهن من الحقوق

Bu maqolning ma’nosi shundaki, ayollar erkaklarning juftlari bo‘ladi hamda ularning ham xuddi erkaklar kabi o‘z haq-xuquqlari va majburiyatlari bor.

كمثل الحمار بحمل اسفارا

Ustiga muqaddas kitob ortilgan eshak kabi. Bu maqol mazmuni shuni anglatadiki,ilmi ko‘p bo‘la turib o‘zi unga amal qilmagan inson nazrda tutiladi.

ثآفَةُ الْمُرُوءَةِ خُلْفُ الْمَوْعِدِ.

Rus tilidagi tarjimasi: Нарушение обещанного – это беда для авторитета (чести человека).

O‘zbekcha lug‘aviy tarjimasi: Va’dani buzish – bu obro‘ uchun falokatdir

Xulosa. Yuqorida ko`rib o`tganlarimizdan xulosa shuki, maqol tarjimasida bir nechta yondashuv mavjud. Agar tarjima tilida uning to‘liq ekvivalenti bo‘lsa, maqol aynan shu shaklda olinadi, chunki bu holda milliy va madaniy kontekst saqlanadi. Bunday holat tarjima jarayonini osonlashtiradi va asliyatga yaqinligini ta’minlaydi.

Agar tarjima tilida ayni shu maqol mavjud bo‘lsa, tarjimon uni o‘zgarishsiz yoki eng yaqin variantda ishlatishi mumkin. Bunday tarjima o‘quvchilar uchun tabiiy eshitiladi va ular tomonidan yaxshi qabul qilinadi.

Biroq ba’zan tarjima tilida maqolning ekvivalenti yoki aynan o‘xshashi bo‘lmaydi. Bunday vaziyatda tarjimon maqol mazmunini tushuntiruvchi ekvivalentni topishga yoki yangi maqol yaratishga majbur bo‘ladi. Bu esa tarjima tiliga yangi ifoda kiritilishiga sabab bo‘lishi mumkin. Yangi maqolning yaratilishi madaniyatlararo ta’sirning natijasi bo‘lib, ba’zan tarjima tili lug‘at boyligining kengayishiga ham xizmat qiladi.

Shunday qilib, maqol tarjimasida tarjima tilidagi ekvivalent borligi tarjima jarayonini osonlashtiradi, ayni shu maqol mavjud bo‘lsa, uni saqlash maqsadga muvofiq bo‘ladi, ekvivalent

bo‘lmasa esa, yangi maqol yoki ifoda qo‘shilishi mumkin. Bu esa tarjima jarayonining ijodiy tomonlarini namoyon qiladi.

Foydalangan adabiyotlar ro`yxati:

1. Zelhheim R. Old Arabic Proverbs. al-Amsol al-Arabiyyatu al-Qadima. – pp. 21-22 (in Arabic)
2. Aybek. (1979). Navoi. Navoi / Translation by Ghaib Tammah Farman, Tashkent, p. 153 (in Arabic)
3. Oybek. (1985). Navoi. Navoi, Tashkent, p. 235. (in Uzbek)
4. Abdujabbrovor A. (2007). The Arabic Language. Arab tili. – Tashkent Islamic University, p. 87 (in Uzbek)
5. Salomov G. Translation of Proverbs, Sayings, and Idioms from Russian to Uzbek (in Uzbek).
6. Sattorova, A. (2025). THE PECULIARITIES OF THE TRANSLATION OF PROVERBS AND SAYINGS (ON THE EXAMPLE OF A. QODIRIY’S WORK "THE SCORPION FROM THE ALTAR"). Theoretical Aspects in the Formation of Pedagogical Sciences, 4(2), 120–124. извлечено от https://www.econferences.ru/index.php/tafps/article/view/24228
7. Sattorova, O. (2025). Peculiarities of Translating Proverbs and Sayings: Based on the Work "Mehrobdan Chayon." Pedagogy and Psychology in the Modern World: Theoretical and Practical Research, 4(3), 33–36. Retrieved from https://in-academy.uz/index.php/zdpp/article/view/44617
8. Sattorova, Oqila. (2025). Peculiarities of Translating Proverbs and Sayings (Based on A. Qodiriy's "Mehrobdan Chayon"). ORIENSS, 20. URL L: https://cyberleninka.ru/article/n/maqol-va-matallar-tarjimasining-o-ziga-xosligi-a-qodiriyning-mehrobdan-chayon-asari-misolida